

## SUN'YI INTELLEKT JAMIYAT UCHUN IJTIMOIIY XAVFMI YOKI IJOBIY HODISA

*Ro'zmetov Ro'zmat Botirovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Urganch filiali "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

## IS ARTIFICIAL INTELLIGENCE A SOCIAL RISK OR A POSITIVE PHENOMENON FOR SOCIETY

*Rozmetov Rozmat Botirovich, teacher of the Department of "Social  
Sciences" of the Urgench Branch of the Tashkent Medical Academy*

## ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ — СОЦИАЛЬНАЯ ОПАСНОСТЬ ИЛИ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН ДЛЯ ОБЩЕСТВА

*Розметов Розмат Ботирович, преподаватель кафедры  
"Общественные науки" Ургенчского филиала Ташкентской  
медицинской академии*



<https://orcid.org/:0009-0007-0643-8360>

*e-mail:*  
[rozmatrozmetov88@gmail.com](mailto:rozmatrozmetov88@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellektning jamiyat hayotiga kirib kelishi, uning inson zehni bilan raqobatlashishi, jamiyat farovonligi uchun ulkan bir yutuq ekanligi, jamiyat hayotidagi juda ko'p sohalarda o'zining ijobiy va salbiy taraflarining ochilishi va tavsialardan iborat.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, zehn, raqobatlashish, farovonlik, jamiyat.

**Abstract:** In this article, the entrance of AI into the life of society, its competition with the human mind, the fact that it is a great achievement for the well-being of society, the discovery of its positive and negative sides in many fields of society and recommendations.

**Key words:** artificial intelligence, mind, competition, prosperity, society.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вхождение ИИ в жизнь общества, его конкуренция с человеческим разумом, то, что он является большим достижением для благополучия общества, раскрытие его положительных и отрицательных сторон во многих сферах жизни общества и рекомендации.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, разум, конкуренция, процветание, общество.

**KIRISH.** Insoniyat tarixi sivilizatsiyalar tarixidir. Bunda inson ibtidoiy ko'rinishdan fenomenal yuksak aql sohibi darajasigacha chiqdi. Insoniyatning aqlan yuksak darajaga chiqishida faktorlar juda ham ko'p. Ular quyidagilar:

- qiziqish;
- yashash uchun kurash;
- ehtijlar;
- dunyoni anglash;
- atrof- muhitni o'zlashtirish;
- o'zini Homo Sapiens sifatida namoyon qilishi;
- hukmdorlik;

-ilmga intilishi;

-qo'l mehnatidan mashina mehnatiga o'tishi, bu 18-19 asrlarga to'g'ri keladi.

Va bu almashinuv yirik sanoat rivojiga olib keldi. Bunga mehnat unumdorligining keskin o'sishi, urbanizatsiya, yuqori sifatli po'lat ishlab chiqarish, temir yo'llar, elektr va kimyoviy moddalarning ko'payishi hamda konveyer tipidagi ommaviy ishlab chiqarishning rivojlanishi davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi turmush tarzining o'sishi uchun asos bo'ldi.

Bir tomondan, "mexanizatsiya" va ahmoqlik, ikkinchi tomondan, kompyuterlarni "insoniylash-

tirish”, antropomorfizatsiya qilish, keyin unga sof insoniy xususiyatlar, xususan, ong, aql, tafakkur, bilim, ijodkorlik, yangilik, iroda, his-tuyg‘ular va boshqalar. Bu borada P.S.Gurevich G‘arb adabiyotida keng tarqalgan inson haqidagi apofatik g‘oyani to‘g‘ri tanqid qiladi. Bu tushuncha Odam Ato naslining barcha tan olingan xususiyatlarini rad etadi, bu esa uni boshqa tirik mavjudotlardan, ayniqsa jonsizlardan aniq ajratib turadi [1].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Sun‘iy intellekt tushunchasi va masalasi yuzasidan Gurevich P.S. “Апофатический проект человека”, Kanke V.A. “Философские науки: краткий энциклопедический словарь”, Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” 1-jild va “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Markov.B.V. “Философия. Стандарт третьего поколения”, Naletov I.Z. “Философия: учеб”, Pechey A. “Человеческие качества”, va Spirkin A.G. “Философия” adabiyotlaridan foydalanilgan.

Maqolada retrospektiv va tizimli funksional tahlil bilan bir qatorda tarixiylik, ratsionallik va ketma-ketlik kabi bir qator metodologiyalar qo‘llanilgan. U ilmiy tadqiqotning dialektik va sinergetik usullaridan foydalangan holda sotsiodinamik nuqtayi nazar va sotsiologik tahlilni o‘zida mujassam etgan kompleks yondashuvni o‘z ichiga oldi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan: “Afsuski, ochiq aytish kerakki, keyingi paytlarda bizda zahmatkash olimlarimizning ilmiy izlanishlari, yutuqlarini keng yoritish, har tomonlama targ‘ib qilish masalasiga e‘tibor berilmayapti. Ilm-fan yutuqlarini jamoatchilik, birinchi navbatda, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ularning bu sohaga e‘tibor va qiziqishini oshirish borasida hali ko‘p ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Mamlakatimizda ilm-fanni dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan darajada rivojlantirish uchun siz va barcha olimlar, ilmiy jamoalar uchun zamonaviy sharoit yaratish biz uchun ham qarz, ham farzdir” [2].

Uzoq vaqt oldin paydo bo‘lgan “sun‘iy intellekt” muammosi 21-asrda juda dolzarb bo‘lib qoldi, jamiyatning deyarli barcha jabhalarida “sun‘iy intellekt” keng kirib borganidan so‘ng haqiqatan ham hayotimiz qizg‘in bo‘ldi. Raqamli iqtisodiyot, raqamli biznes va boshqalarning paydo bo‘lishi, kompyuter virtual haqiqatining bizning mavjudligimizdagi rolining ortishi ko‘p jihatdan

insoniyatning rivojlanishini belgilaydi va insonning “homo sapiens” turi sifatida mavjudligiga tahdid soladi. Shu munosabat bilan ba‘zi tadqiqotchilar hatto postantropologik, insoniyatdan keyingi davrning paydo bo‘lishi haqida gapiradilar va yozadilar [3].

**MUHOKAMA.** Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, atom energiyasidan foydalanish, aloqa tarmoqlarining paydo bo‘lishi hamda matematik va mantiqiy operatsiyalarni bajaraoladigan intellektual mashinalar (kompyuterlar) paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Barcha oliy ta‘lim muassasalarida tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha narsalar interneti, robototexnika, sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash va o‘rganish laboratoriyalari tashkil etish, shuningdek, ushbu sohaga xorijiy korxonalarni jalb qilishni tashkil etish, mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va rag‘batlantirish; raqamli texnologiyalar sohasiga, g‘oyalar va yangi texnologiyalarni yaratishga ko‘maklashuvchi tanlov va tadbirlarini o‘tkazish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratish lozim” [4].


Bizning baholashimizda I.Z.Naletov dialektik materializm tamoyillariga asoslangan inson ongining birlamchi atributlarini samarali ifoda etadi, ular inson ongi va aql-idrokining sifat jihatidan farqlarini aniqlash uchun juda mos keladi va shu bilan ularning “sun‘iy intellekt” dan jiddiy farqini ko‘rsatadi. Quyida keltirilgan elementlar [5]:

- tashqi voqelikni subyektiv idrok etish;
- yuqori tartibli moddaning xarakteristikasi miya;
- inson bilishi va amaliy ishtirokining optimal jihati;
- tushunchalarni shakllantirish, fikr yuritish va xulosalar chiqarish qobiliyati;
- voqelikni aks ettirish cho‘qqisi;
- inson kognitiv funktsiyasining oliy namoyon bo‘lishi;
- imzo va axborot harakatlari;
- shaxsning hissiy manzarasining yadrosi;
- inson intuitsiyasining asosi;
- shaxs tomonidan doimiy ravishda to‘plangan va yangilanadigan tajribani aks ettirish va sintez qilish;
- o‘z-o‘zini anglash usuli;
- obyektiv shakllantirish;

- bashoratlilik;
- ilmiy tushunish uchun zarur bo'lgan nazariyalar, g'oyalari va tushunchalar to'plami;
- abstraksiya va ideallashtirish voqelikni anglash vositalari sifatida;
- madaniyatni tashkil etuvchi barcha narsalarni qamrab oluvchi badiiy va adabiy timsollarning avlodi.

Inson hayotiga elektron hisoblash mashinalari kirib kelishi, inson aqliy potensialining yangi qirralarini ochib berdi. Va shu bilan butun insoniyat hayotida axborotlashgan sivilizatsiya fenomeni sodir bo'ldi. Axborot va intellekt jamiyatlarning har qanday rivojlanishi uchun asosiy tayanch bo'ldi. Natijada, inson aqliy potensialining imkoniyatlari kuchayib ketdi. YaIM asosiy qismi intellektual mulkka qaratildi va dunyoning iqtisodiy rivojlanishining dastagi bo'ldi. Bugungi kunda ko'pgina olim va mutaxassislar fikriga ko'ra, insoniyat hayotining navbatdagi ko'rinishi sun'iy

intellekt bilan bog'liq. Shu o'rinda "intellekt" so'ziga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, intellekt – bu axborotni qabul qilish, anglash, idrok qilish, saqlab qolish va qayta ishlash qobiliyatidir. Bu odamlar, hayvonlar va mashinalarda turlicha bo'lishi mumkin. Shuningdek, shuni tushunishimiz kerakki, intellektning mavjudligi, ongning mavjudligini anglatmaydi. Intellekt turli o'lchash va hisoblash mumkin bo'lgan masalalarni hal qila oladi. Yig'ilgan tajriba va ko'nikmalar vositasida yangi vazifalarga moslasha oladi. Ong esa hissiyotga ega bo'lgan psixik faoliyatning eng yuksak shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar ana shu intellektga ega bo'lgan qurilma va kompyuter dasturlarni yaratishga asoslangan kuchli texnologiyalardir. Bugungi kunda katta ma'lumotlarga (Big Data) ega bo'lgan murakkab muammolarni hal qilish insonlar uchun o'ta qiyin vazifa hisoblanadi



Aynan shuning uchun insoniyat sun'iy intellektni rivojlantirish ustida izchil ishlar olib bormoqda. Chunki, sun'iy intellekt murakkab muammolarni hisoblash jarayonini yengillashtiradi. U shuningdek, inson aqli yetmagan masalalarga oydinlik kiritishi mumkin. Sun'iy intellekt inson uchun o'ta muhim bo'lgan vaqt va resurslarni tejaydi. Sun'iy intellekt bu inson aqliga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalarni yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasidir.

Yuqorida biz sun'iy intellektning tiplarini keltirdik. Bunda: NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash) –

bu nutqni tushunish qobiliyatidir. Bu dastur bir nechta buyruqlarni o'z ichiga oladi:

1. Matn tahlili – berilgan matndan kalit so'zlarni ajratish.
2. Til tarjimasini – matnni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish.
3. Nutqni aniqlash – og'zaki tilni matnga ko'chirish.
4. Tabiiy til – avtomatlashtirilgan kontent yaratishda inson kabi matn yaratish avlodi.
5. Computer Vision/Photo – xavfsizlik va transport vositalaridagi kameralar, smartfonlar,

gadgetlar va boshqa qurilmalar tomonidan olingan yoki ular tomonidan yaratilgan tasvirlar va video ma'lumotlaridan foydalanish.

6. Robotics/Manufacturing – har xil maqsadlarda robotlardan foydalanish va ishlab chiqarish.

7. Machine learning – mashinani o'rganish. Bu algoritmlarga asoslangan avtomatik integratsiyalashuv funksiyasi.

Sun'iy intellekt uch turga bo'linadi:

1. Kuchsiz SI (Artificial Narrow Intelligence) - ma'lum bir vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan, maxsus kodlangan intellekt. Buyruqlardan tashqariga chiqqa olmaydigan intellekt. Biz bilan hamnafas yashayotgan sun'iy intellekt avlodidir. Bularga YouTube, Amazon Alexa, Netflix, Google Assistant, Siri, Alice, Waymo, Microsoft Cortana, Bixby, Voice Mate, ChatGPT, Sophia, Marusia va boshqalar kiradi.

2. Kuchli SI (Artificial General Intelligence) masalasi kelajakka doir bo'lib, u inson bajarishi mumkin bo'lgan barcha ishlarni bajara oladi. Bunga misol qilib "Iron man" (Temir odam) filmidagi Jarrisni misol qilishimiz mumkin. Bunday ko'rinishdagi sun'iy intellekt hali mavjud emas. Ammo, ayrim ishlanmalarda dastlabki belgilari mavjud.

3. Super SI (Artificial Super Intelligence). "Terminator", "Matritsa" kabi filmlarda tasvirlangan intellektidir. Jamiyatning barcha sohalarida insondan ilg'or natijalarni ko'rsata oladi. Bu sohada hali ishlar izlanishlar boshlanmagan.

Bir paytlar fantastik mualliflarning asarlarida mavjud bo'lib, xayoliy voqeliklardan iborat bo'lgan hodisalar va personajlarda aks etgan sun'iy intellekt raqamlarni qayta ishlashdan tashqari intellektual harakatlarni amalga oshirish kerak bo'lgan sohalariga kirib keldi. Bunga misol sifatida, aql o'yinlarini olishimiz mumkin:

**NATIJARLAR.** 1979-yil "Narda" o'yini BKG 9.8 dasturi yordamida amaldagi Jahon chempioni mag'lub etildi. 1997-yil "Shaxmat" o'yini IBM kompaniyasining Deep Blue dasturi mutlaq Jahon chempioni, Grossmeyster Garri Kasparovni taslim qildi. 2007-yil "Shashka" o'yini Chinook dasturi yordamida Kanadada hech qachon yutqazmaydigan shashka dasturi yaratildi. Bu dastur bilan o'ynagan chempion agar xatosiz o'ynagan taqdirda ham, eng yaxshi holatda durangga erishishi mumkin edi. 2011-"Televiktorina" o'yinida IBM WATSON dasturi

ikki afsonaviy chempionlarga hech qanday imkoniyat qoldirmay mag'lub etdi. 2017-yil "Poker" o'yinida DEEP STACK dasturi 11ta professional pokerchilarni yengdi. 2017-yil "GO" o'yinida ALPHAGO dasturi insonni mag'lub etdi. 2019-yil "StarCraft 2" strategic o'yinida GOOGLE ishlab chiqqan APHASTAR dasturi eng yaxshi o'yinchilardan birini 5:1 hisobida yengdi.

Bir nechta 10 yillar oldin mana shu o'yinlarda g'alaba qozonish mutlaq intellektual ustunlik belgisi edi, bugun esa ularning barchasida insoniyat mag'lub bo'ldi. Ushbu yutuqlar bilan birga aytishimiz mumkinki, kuchli sun'iy intellekt deb atalmish texnologiyaning yaralishi hech gap emas.

Sun'iy intellekt modelini yaratish inson ongi va tabiiy intellektning o'ziga xos tushunchasiga tayanadi. Aql, sun'iy intellekt va xabardorlikning aniq talqinlari yo'qligi sababli, ushbu hujjatda tadqiqot maqsadlarida ularning ma'nolarini belgilash zarur.

Quyida A.Pecchei aytgan to'g'ri gap: "Zamonaviy insonning qudrati kengaygani sari uning dunyodagi yangi o'rniga mos ravishda mas'uliyat hissi yo'qligi qiyinlashib, ko'zga tashlanib qoldi" [6]. U o'zgardi. Uning bilimsizligi natijasida zamonaviy vahshiyga aylandi, bu ulkan kuch bilan tavsiflanadi, lekin undan qanday foydalanishni to'liq tushunmaydi.

Sun'iy intellektning ijobiy tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak:

Bugungi kunda sun'iy intellekt hayotimizning ko'plab sohalariga kirib bormoqda, bu ayniqsa, sanoat, yuk tashish, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, media, kino sanoati, texnologiya, sud-huquq, xizmat ko'rsatish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi, suv zahiralari va atrof-muhit, yadroviy ilm-fan va termoyadroviy sintez, yadro energiyasi, raqamlashtirish jarayonlariga o'tish, aqlli texnologiyalar va shaharlar barpo qilinishi kabilarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda.

Rus akademik, ma'lumotnoma va o'quv adabiyotlari asosan ongning dialektik-materialistik konsepsiyasini taqdim etadi. Uning fikricha, ong voqelikni aqliy aks ettirishning eng oliy shakli bo'lib, u faqat insonga xos, u amalga oshirilayotgan til bilan uzviy bog'liqdir. Ong nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, u ideal va ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega. To'g'ri, adabiyotda inson ongining bir ma'noli, umume'tirof etilgan ta'rifi haligacha mavjud emas. Bizning fikrimizcha, u



A.G.Spirkin tomonidan eng muvaffaqiyatli berilgan. U shunday deb yozadi: “Ong miyaning faqat odamlarga xos bo‘lgan va nutq bilan bog‘liq bo‘lgan eng oliy funksiyasi bo‘lib, u voqelikni umumlashtirilgan va maqsadli aks ettirishdan, harakatlarning dastlabki aqliy qurilishi va ularning natijalarini bashorat qilishdan va inson xatti-harakatlarini, o‘z-o‘zini nazorat qilish, oqilona tartibga solishdan iborat” [7].

Sun‘iy intellektning salbiy tomonlari: ishsizlik ko‘payishi natijasida ijtimoiy tanglik va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin, axloqiy muammolarning kelib chiqishi, bunda yolg‘on axborot shaxsiy hayotni buzib yuborishi yoki jamiyatda ma‘lum bir shaxslarga nisbatan yolg‘on ma‘lumotlar orqali noinsoniy xatti-harakatlarda ayblash mumkinligi, texnologiyalarga qaramlik, buning natijasida insonlarda ijodkorlik qobiliyatining yo‘qolishi, sun‘iy intellektning rivojlana borib, inson nazoratidan chiqib ketishi, bu insoniyat uchun katta xavf keltirib chiqarishi, ma‘lum bir qatlamning kamsitilishi va xolislikdan qochilishi, sun‘iy intellektdan ezgulik yo‘lida ham, yomonlik yo‘lida ham foydalanish mumkinligi, terrorchilik, jinoyatchilik, kiberhujumlar kabi yovuzlik maqsadlariga xizmat qilishi mumkin.

Sun‘iy intellektning kelajagi haqidagi fikrlar bahsli. SpaceX asoschisi Elon Mask fikriga ko‘ra, sun‘iy intellekt mehnat bilan bog‘liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun‘iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarlarni ko‘rmay qolishlari mumkin.

Shuningdek, Microsoft rahbari, Bill Geyts fikricha: “Bir nechta 10 yildan keyin, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun‘iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi”.

2023-yil 18-iyul kuni BMTning Xavfsizlik kengashida sun‘iy intellektning global xavfsizlikka ta’siri muhokama qilindi. Unda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish fikr bildirib, sun‘iy intellektga asoslangan mashinalar insonlarga ziyon-zahmat yetkazishi mumkin, terrorchilar, jinoyatchilar, kiberhujumchilar sun‘iy intellektdan yovuz maqsadda foydalansalar, bu global xavfsizlik uchun o‘ta jiddiy oqibatlariga olib keladi, deb ogohlikka chorladi.

**XULOSA.** Xulosa qiladigan bo‘lsak, uni oqilona ishlatilsa jamiyat uchun katta foyda keltirishi mumkin. Sun‘iy intellektga beriladigan mehnati uchun haq past bo‘ladi. Natijada, sun‘iy intellekt sohasida ilg‘or texnologiyalarni arzoniga va bepul ishlatish, aholining tez o‘sib borayotgan hayot sifatini oshirishga va inson hayotining farovonligiga olib kelishi mumkin. Ish o‘rinlarini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqish kerak emas, aksincha u bizning shaxsiy rivojlanishimiz uchun ko‘makchidir. Ba’zi kasblarda ishchi va xodimlarning o‘rnini olishi bilan, yangi kasblarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Sun‘iy intellektdan foydalanishni o‘rganishimiz kerak. Sun‘iy intellekt inson zakovatining mahsuli ekan, uning nazorati ham insonning qo‘lida bo‘lishi kerak. Aytilayotgan nazorat organi sun‘iy intellektning jamiyatda axloqiy va ijtimoiy salbiy oqibatlarini oldini oladigan, butun dunyo bo‘ylab amal qiladigan tashkilot haqida gap ketyapti. Sun‘iy intellektda ijodkorlik yo‘q, u buyruqlarga bo‘ysungan holda ishlaydi. Bu yerda sun‘iy intellekt bilan uyg‘un holda ishlasa, ya’ni, aniq faktlar bilan ishlashda sun‘iy idrok kuchli, sun‘iy intellekt bajargan natijani tahlil qilishga kelganda inson aqli, iste’dodi va ijodkorligiga tayanib ishlaydi. Muhim joyi shu yerdaki, sun‘iy intellektni ishlatishda “maksimal foyda olib, minimal zarar ko‘rish” tamoyiliga asoslanishi kerak.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гуревич П.С. Апофатический проект человека // Вопросы философии. 2013. № 8. С. 42–53.
2. Канке В.А. Философские науки: краткий энциклопедический словарь. М.: Омега-Л, 2008. С.159–160.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 177-178 б.
4. Марков.Б.В. Философия. Стандарт третьего поколения. Учеб. СПб.: Питер, 2017. С. 464.
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 193.
6. Налетов И.З. Философия: учеб. М.: ИНФРА-М, 2010. С. 242–243.
7. Печей А. Человеческие качества. М.: Прогресс. 1980. С. 44.
8. Спиркин А.Г. Философия: учеб. М.: Юрайт, 2011. 383 с.